

## RANGTASVIRDA KOMPOZITSIYANING AHAMIYATI

**Abduqahhorova Muslima Mirzabahrom qiz**

*Andijon davlat pedagogika instituti «Ijtimoiy-gumanitar fanlar va san’at» fakulteti  
«Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi» yo’nalishi 2 –bosqich talabasi.*

*E-mail: [muslimaabduqahorova7@gmail.com](mailto:muslimaabduqahorova7@gmail.com)*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada tasviriy san’atning rangtasviri haqida ma’lumot hamda rangtasvirda kompozitsiyaning ahamiyati uning ranglardagi asoslari va kompozitsiya haqida bir nechta tushunchalar keltirilgan.*

**Kalit so’zlar:** *Kompozitsiya, rangtasvir, ranglar perspektivasi, perspektiva, janr, issiq ranglar, sovuq ranglar, sujet.*

Respublikamizning kelajakda buyk davlatga aylanishi, jahonning rivojlangan davlatlari qattoriga qoshilishida xalqimiz madaniyati, ma’rifati, san’ati va ma’naviyatining o’rni beqiyosdir. Xalqimiz ma’naviyati va madaniyatini boyitishda tasviriy san’at muhim o’rin tutadi.

Rangtasvir – tasviriy san’atning turlaridan biri hisoblangan bo’lib unda muhim o’rinni rang egallaydi.

Rangtasvirga qattiq tekislik yuzasiga bo’yoqlar orqali tushirilgan san’at asarlari kiradi.

Rangtasvir degani, hayotni jonli, ya’ni borliqni to’liq va ishonarli tarzda tasvirlanishini bildiradi.

Rangtasvir amaliy xususiyatlariga ko’ra monumental, dastgohli, miniature, teatr-dekoratsiya, bezakli naqqoshlik va boshqa turlarga bo’linadi.

Ularning har bir turi ishlash texnikasi va badiiy obrazini bajarilish vazifasiga ko’ra o’z xususiyatiga bog’liq holda farqlanadi. Rangtasvirning badiiy obrazi ko’rgazmali va aniq ravshandir. Rassomlar asarni tasviriy va plastic vositalari ( qalamtasvir va kompozitsiya) yordamida yaratishsa, asosiy ifodaliligini ko’rsatuvchi vosita esa rang hisoblanadi.

“Kompozitsiya” - lotinchadan olingan bo’lib, “ yaxlit tuzish”, “uzviy bog’liqlik” singari ma’nolarni anglatadi.

Mazmuni, xususiyati va mo’ljallangan rejasi ularga asoslangan badiiy asar tuzilmasining qabul qilinishi ko’p jihatdan aniqlab beradi. Hech bir mafis san’at na’munasi, jumladan, me’morchilik va xalq amaliy san’ati ham kompozitsion yechimsiz bo’lishi mumkin emas.

Rangtasvirda kompozitsiya buyumlar hamda sgakllarning fazoviy kenglikda nur va soya, shuningdek, yorug’ dog’lar munosabatlariga ko’ra ifodalanishi bilan asarning izchil g’oyaviy va syujetli-mavzuli asosini namoyon etadi.

“Kompozitsiyani rassom kuzatishni o’rganmasdan,, o’zi uchun qiziqarli va muhim jihatlarni belgilamasdan turib yarata olmaydi. Shu daqiqalardan keyingina birlamchi hisoblangan borliqni ifoda etish imkoniyatlari rassomga ochila boradi hamda u g’oya nimadan ekanligini tushuna boshlaganda faqat shakllantirish qoladi va kompozitsiya o’z-o’zidan unga taslim bo’ladi...”(Kramskoy).

Kompozitsiya o‘z sifati va vazifasini mavzuli kartinalarda to‘laqonli namoyon etadi. Bunda kompozitsiyaning asosiy ahamiyati badiiy asar g‘oyaviy jihatini ochib berishdan iboratdir. Badiiy asarda syujet harakati “rejissiyorlik” vositasi va uslublar yordamida mayda unsurlargacha qarab chiqiladi. Yo‘l-yo‘lakay rassom ishtirokchi shaxs xususiyatlarini aniqlab yoki belgilab boradi, ularning bir-biriga va atrofdagilarga munosabatini ifodalaydi. Bunda o‘ylab topilgan shakllar va buyumlar guruhi, aniq topilgan tarz hamda yuz va harakatning ta’sirchan holatlari, ishora tili singarilar asosiy kompozitsion vositalar hisoblanadi. “Rejissiyorlik” ishlari rassom tomonidan belgilangan umumiy masofaviy-fazoviy tuzilishiga ko‘ra olib boriladi. Bunda rassomning nuqtayi nazari, ufq sathlari, makon va asosiy fazoviy loyihani tanlay olish qobiliyati muhim hisoblanadi.

Kompozitsiya buyumli- mazmuniy unsurlari u bilan uzluksiz aloqada bo‘lgan “maxsus” kompozitsion vositalar bilan barqaror harakat qiladi. Tasvirning tanlanishi:

- Aniq hisoblangan urg‘ular va yoritish variantlari;
- Qarama – qarshilikning turli usullarini qo‘llay olishlik;
- Shaklning ritmik tarzini to‘g‘ri shakllantirish bunga bo‘liq holda boradi.

Ba‘zan realistik san‘atda kompozitsiya biz fikrimizni bayon qilish uchun gapdan foydalanganimiz singari mustaqil o‘rin egallaydi. Kompozitsiya tomoshabinni rassom ifoda etishi lozim degan tushunchaga eltish uchun xizmat qiladi. Realistik kompozitsiya vosita yoki uslub sifatida namoyon bo‘lmaydi, shuningdek, tomoshabinni o‘ziga bog‘lab ham olmaydi. Qat’iy qonuniyatlar talablari unga har bir alohida holatda ham xalaqit bermaydi, rassom hech bir tamoyilga bog‘lanmagan tarzda ichki erkinlikka erishadi.

Har bir etyudda rassom, agar inson qiyofasi bo‘lsa, kerakli harakatni berib, agar natyurmort yoki manzara janrida bo‘lsa, ma‘lum shakl va holatni berganega, kartina uchun zarur bo‘lgan yechimgina erishishi mumkin/

Rassom bo‘lg‘usi asar uchun muhim bo‘lgan umumiy rejani va nimalarga e‘tiborini qaratishi lozim ekanligini belgilab olado.

Asardagi unsurlar tasodifan joylashitirilmaydi, ular rassom g‘oyasiga muvofiq kelishi, kompozitsiya deb yuritiladigan g‘oyaviy mulohazani ta‘kidlab turishi lozim.

Kompozitsiya mukammalligining birinchi belgilaridan biri uning uzoq masofadan turib tushunilishida. Agar kartina katta masofada noaniq bo‘lib ko‘rinsa yoki olachiporligi bilan ko‘zni “qamashtirsa”, demak unda asosiy kasbiy daqiqa besamar ketgan, - deyavering. Bezakdorlik kompozitsion ravonlikning asosidir.

Kompozitsiyani ishlab chiqishda rassomning ongli yondashish daqiqalari muhim bo‘lishi mumkin, barcha mezonlarni anglab yetgan rassom biror-bir samaraga erishishi tayin. Uning ijod davomida to‘plagan tajribalari ham alohida ahamiyatga ega. Mumtoz xazinalarga murojaat etish va ularning qonuniyatlariga amal qilishlik, rassom uchun o‘rnak bo‘lgan usta maslahatlariga e‘tibor berishlik ham muhim o‘rin egallaydi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Abdirasulov. S , Tolipov.N Rangtasvir . “Bilim” nashriyoti. T., 2005
2. Boymetov. B, Abdirasulov S. Chizmatasvir. G’.G’ulom nashriyoti. T.,2004
3. Majidov. J . Tasviriy san’atdan maktabdan tashqari ishlar. “O’qituvchi”, T., 1983
4. Oripov B. Tasviriy san’at va uni o’qitish metodikasi. T., “Ilm-ziyo’ nashriyoti, 2005.
5. M.Saparov , R. Xayrullayev , Dastgohli rangtasvirda kompozitsiya asoslari. “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi. Bosh tahririyati. Toshkent – 2007.